

## MODERN HIKOYALARDA OLAM VA ODAM

*Ismoilova Fotima Baxriddinovna**Samarqand shahar 81-maktab, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Bugungi keng ildiz otib borayotgan hikoya janrida modern ohanglar tobora ko'proq ko'zga tashlanib bormoqda. Bir qancha yozuvchi ijodkorlarimiz o'zini aynan shu yo'nalishda sinab ko'rmoqda. Bulardan yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Sobir O'nar, shoir Bahrom Ro'zimuhammad va boshqa bir qancha shoir-u yozuvchilarni e'tirof etishimiz lozim.

**Kalit so'zlar:** modernizm, "eng yangi", dekadens, inson "men"i, ramziy-majoziy, polifonik, adabiyotdagi "soya"lar.

"Modernizm" (fransuzcha – moderne – eng yangi, zamonaviy) atamasining kelib chiqishini XX asr avvalida G'arbiy Yevropada paydo bo'la boshlagan futurizm, ekspressionizm, imajinizm, unanizm kabi badiiy oqim va guruhlarining yuzaga kelishi bilan bog'lashadi.<sup>1</sup> "Modernizm"ni ayrim adabiyotshunoslar aniq topib ishlatilgan atama emasligini aytishadi. Ularning fikricha, "modernizm"ning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqanda, har qaysi davr o'zining "eng yangi", "zamonaviy" badiiy oqim va guruhlarini paydo qiladi. Markscha adabiyotshunoslikda "modernizm" "dekadans" atamasi bilan bir xil ma'noda qo'llaniladi. Aslida "dekadans" (fransuzcha – denadence – tushkunlik) atamasi o'tgan XIX asrning 80–yillarida yuzaga kelgan: o'sha yillar Parijda "Dekadans" nomli jurnal chiqa boshlagan, "dekadant" atamasi ham ayni shu yillari bo'lib o'tgan adabiy munozaralarda qo'llanilgan".<sup>2</sup> Bu atamalarning asosiy farqi shundaki, "dekadant"lar o'zlaridan oldin o'tgan adabiy oqimlar bilan bog'liq holda, uzviylikda yuzaga kelgan bo'lsa, "modern"chilar o'tmish bilan aloqani batamom uzib, yangi zamonga mos "modern" san'atini yaratishga kirishishgan. Shu boisdan ham "modern"ni "eng yangi", "zamonaviy"dan ko'ra kengroq ma'noda, butkul yangi, g'ayri an'anaviy, oldingilardan farqli hodisa sifatida olib qarash to'g'ri hisoblanadi. Modernizm oqimining o'zbek adabiyotida kirib kelishini shoir Bahrom Ro'zimuhammad quyidagicha izohlaydi: "Modernizm"ni realizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizmga realizm suvratidagi sotsial realizm oqimigina qarshi qo'yilgan. Endilikda esa asta–sekin adabiyot siyosatdan holi bo'lmoqda. Jumladan, adabiyotning o'ziga xos "siyosati" mavjud. Adabiyot inson ruhiy olami uzra siyosat yuritadi – ruh olamidagi jismlar o'rtasida intizom o'rnatiladi. Qadim–qadimdan shunday bo'lib kelgan va shundayligicha davom etmoqda. So'fiylarning ko'ngil parvarishi

<sup>1</sup> «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». 1996 йил, 2 февраль.

<sup>2</sup> Шарафуддинов О. Модернизм – жўн ходиса эмас // ЎзАС. 2002 йил 7 июн.

haqidagi ta'limoti bejiz kun tartibiga chiqmagan bir mahallar. Biz ham shu yo'ldan yurishimiz lozim. Bu yo'l bizning ma'naviyatimizni yuksaklikka olib chiqadi, bu yo'l millatimiz yuragini, sharqona kechinmalarini bobolarimiz ma'naviyatiga omuxta etgan holda jahon ilm ahliga ko'z–ko'z qiladi". Haqiqatan ham, shoir ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yuzaga kelgan. Bu borada mohir adiblardan N.Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalari yuqori baholab: "Turkiy xalqlar asotir va eposining ta'sir ko'lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni o'zlashtira olsak, G'arb adabiyoti nimadan "ozuqlangan"ini ham, chinakam ma'nodagi adabiyot o'zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz". Azaldan aksariyat asarlar uchun xos bo'lib kelgan shunday kamchiliklardan yana biri – sujetni juda oddiy va jo'n tarzda qurish bugungi hikoyalarda ham davom etmoqda. Bir–biriga shunchaki bog'langan voqealar bayonidan iborat bu turdagi hikoyalarda hayot hodisalari jiddiy tahlil etilmaydi, ularga aniq munosabat bildirilmaydi. Tijorat maqsadida bitilgan, xususiy gazetalar savdosiga mo'ljallab bitilgan ayni shunday narsalar adabiyotning bugungi jamiyatdagi o'rni, ahamiyatiga, afsuski, „soya“ solib turadi. Tabiiy, „soya“lar har doim bo'lgan va bo'laveradi. Ammo ular kitobxonlarni hayot haqida o'yantiradigan, „inson“ deb atalmish murakkab xilqatning sirli, g'aroyib qalb olami bilan tanishtiradigan asl, o'z muxlisiga ega bo'gan asarlar qadrini hech qachon pasaytirolmaydi. O'zbek adabiyotida g'arb mamlakatlari turmushi aks ettirilgan, bosh qahramon sifatida g'arb kishisi obrazidan foydalanilgan badiiy asarlar nisbatan kamroqdir. O'tgan asrlar adabiyotiga nazar tashlasak, bularga misol sifatida Furqatning „Suvorov“, „Yunon mulkida bir afsona“, Sulton Jo'raning „Bruno“ dostonlari va O'lmas Umarbekovning „Bulg'or qo'shiqlari“ turkum hikoyalari ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, istiqloq davrida o'zbek adabiyotida adabiy mavzularning jug'rofiy va etnik hududlari tobora kengayib borayotgani, adiblarimiz, hatto, Osiyo, Yevropa sarhadlaridan oshib, Beruniy avlodlariga munosib tarzda, boshqa o'lkalar hayoti manzaralarini ham milliy adabiyotimizga olib kirishga intilish hayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Bu jihatdan, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning izlanishlari tahsinga loyiqdir. Bu yo'nalishda Xurshid Do'stmuhammad dastlab ulug' rus yozuvchisi Dostoyevskiy haqida „Yolg'izim – siz!“ hikoyasini yozib, nashrdan chiqardi. Uch bo'limdan iborat bu katta hikoyada hayotning anchagina achchiq–chuchugini tatib, yoshi qirq besh yoshdan oshgan adibning baxtli oila qurish orzusini yigirma yashar dilbar qiz Annaga to'g'ridan–to'g'ri aytishga botinolmay, „yangi asar rejasini bayon qilish“ qabilida unga muhabbat izhor qilishi, oqibati ular uchun baxtli va jahon adabiyoti taraqqiyoti uchun foydali bo'lib chiqqan nikohdan ilk farzand tug'ilishi voqealari maroqli tarzda tasvirlangan. Bu asar Rossiya adabiy jurnallarida nashr etilsa, rus kitobxonlariga ham manzur bo'lishi, adabiy aloqalar jonlanishiga yaxshi hissa bo'lib qo'shilishi, shubhasizdir. „Jahon adabiyoti“

jurnalining 2004– yil 11– sonida (noyabr) e’lon qilingan va „Beozor qushning qarg’ishi“ kitobiga kiritilgan X.Do’stmuhammad qalamiga mansub „Al–A’rof“ fojiasining e’lon etilishi yozuvchi ijodi muxlislari uchun yana bir daraja kutilmagan hodisa bo’ldi. Chunki shu kungacha asar qahramoni – Amerikaning buyuk yozuvchisi Edgar Allan Po (1809–1849) ijodi o’zbek tiliga kam tarjima qilingan, uning qalinroq bir kitobi ham nashr etilmagan. Ammo jiddiy mutolaaga mashg’ul kitobxonlar orasida biror bir chet el yozuvchisi ijodi va shaxsiyatiga qiziqish darajasi uning asarlari o’zbek tiliga nechog’li tarjima va nashr qilinishi bilan o’lchanavermas ekan.

Hozirgi o’zbek hikoya va qissachiligida Erkin A’zam, Xurshid Do’stmuhammad, Abduqayum Yo’ldosh, Nazar Eshonqul, Ulug’bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlar qalam tebratishmoqda, barakali va samarali ijod qilishmoqda. Ular yaratgan hikoya namunalari ham uslub, ham shakl jihatidan o’zgarib bormoqda. Xususan, o’zbek hikoyachiligi ikki xil uslubiy yo’nalishda rivojlanayotganligini ko’rishimiz mumkin: an’anaviy realistik va modernistik. Zamonaviy o’zbek yozuvchilari ustoz o’zbek hikoyanavislarining, shuningdek, jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy–majoziy obrazlar va uslub jihatdan G’arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanishib, hikoyachilikda yangicha o’ziga xos badiiy–estetik yangilanishlar yaratishmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalari bo’lgan adabiy gallyutsinatsiya, illyuziya singari tasvirlar, yangicha ramziy–psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy–romantik to’qima obrazlar tasviri ham ko’zga tashlanadi. Shu ma’noda, so’nggi yillar o’zbek hikoyachiligida Xurshid Do’stmuhammadning „Beozor qushning qarg’ishi“, Sobir O’narning „Chambilbeyning oydalasi“, Nazar Eshonqulning „Yalpiz hidi“, Abduqayum Yo’ldoshning „Bir tun va bir umr“, Ulug’bek Hamdamning „Uzoqdagi Dilnura“ nomli qissa va hikoyalaridan jamlangan kitoblari e’tirofga loyiq. Xususan, Xurshid Do’stmuhammadning „Jim o’tirgan odam“ hikoyasida bitta ilmiy institutda qirq yil xizmat qilgan olim – Qurbonalining hayoti, uning pismiqlik xarakteri, ya’ni, ko’rib, bilib turib, bilmaganlikka olish kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik illati badiiy muhokama etiladi. Xurshid Do’stmuhammad hikoyalarida qavatma–qavat ma’no mavjud, shunga ko’ra, adib ijodini polifonik badiiy tafakkurga ega, deyish mumkin.

Istiqlol yillarida Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, X.Do’stmuhammad, T.Murod kabi yozuvchilarning asarlari kitobxonni yangicha fikrlashga chorlaydigan, shakily izlanishlarga boy, qahramonning tashqi faoliyatidan ko’ra ruhiy va insoniy qiyofasi ochib berilgan asarlar qiziqtirmoqda. Aytish mumkinki, milliy istiqlo davri asarlari xalqimizning kelajak yo’lini yoritadigan ijtimoiy saboqlar majmuasiga aylandi. Mustaqillik sharofati bilan adabiyotimizning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, hikoyachiligimizda ham sifat o’zgarishlar, yangilanishlar jarayoni

ketmoqda. Bu narsa, birinchi galda, yangi qahramonlarning ma'naviy–intellektual faoliyatida, uning ruhoniy hayotida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir tarixiy ijtimoiy davrda dunyoqarashlar, mafkuralar o'zgargani singari insonga bo'lgan qarashlarning, inson fenomenining talqin xususiyatlari ham o'z tarixiga ega. Insonning vazifasi, mas'uliyati, bir so'z bilan aytganda, tabiat jamiyat hodisalariga ijtimoiy voqelikka munosabati zamonlar o'tishi bilan o'zgarib kelgan. Shu ma'noda mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligida yangi qahramonlarning ma'naviy–intellektual, falsafiy–psixologik dunyosini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan uyg'unlikda o'rganishni hayotning o'zi oldimizga taqozo etmoqda. Chunki inson–jamiyatning ongli, jonli a'zosi. U tarixni, bugunni, kelajakni yaratuvchi, dunyoviy-umumbashariy qadriyatlar asosida davr qiyofasini o'zgartiruvchi buyuk kuch.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норматов У. Давр ва шахс зиддиятлари. – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989, 24 март, №13
2. Солиев А. Ҳаёт ва инсон талқини. – Т.: Турон замин зиё, 2015. – 248 бет.
3. Vladimirova N. V. O'zbek hikoyalari g'oya va obraz. –Т.: “G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1969. 196 b.
4. Do'stmuhammad X. Beozor qushning qarg'ishi. T. Sharq. 2006.
5. Jahon adiblari adabiyot haqida. –Т.: Ma'naviyat, 2010. 390 b.
6. Jo'rayev T. Ong oqimi, modern. –F.: “Farg'ona” nashriyoti, 2010. b–204.